

SOHA MUTAXASSISINING NUTQI RIVOJLANISHIDA O‘ZBEK TILI O‘QITISHNING ROLI

*Yarkinova Barchinoy Bargievna,
“University of economics and pedagogy”
NOTM Filologiya kafedrası dotsenti, f.f.n.
Davlatova Maftuna
Abdurahmonova Madina
Urayimjonova Maftuna
Qo‘ldashova Muxlisa
Ro‘zimuhammedova Dilnura –
“University of economics and pedagogy”
NOTM Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
1-bosqich 35-guruh talabalari*

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta‘limning asosiy bo‘g‘ini sanalgan oliy ta‘lim bitiruvchisi, ya‘ni oliy ma‘lumot egasi nutqi, unga qo‘yiladigan talablar hamda bu jarayondagi o‘zbek tilini o‘qitishning roli masalasi tahlilga tortilgan. Shuningdek, til o‘qitishning nazariy yutuqlari soha mutaxassisi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z va iboralar: *nutq malakasi, lisoniy vositalar, og‘zaki va yozma nutq savodxonligi, soha mutaxassisi nutqi.*

Annotation: The article analyzes the speech of a graduate of higher education, which is considered the main link of continuous education, the requirements for it, and the role of teaching the Uzbek language in this process as well as how important the theoretical achievements of language teaching are for the specialist.

Key words: *speech skills, language features, oral and written speech literacy, expert speech.*

Аннотация: В статье анализируется речь выпускника высшего образования, которая считается основным звеном непрерывного образования, требования к ней и роль преподавания узбекского языка в этом процессе. Также рассмотрено, насколько важны для специалиста теоретические достижения преподавания языка.

Ключевые слова: *речевые навыки, лингвистические средства, грамотность устной и письменной речи, речь специалиста.*

Oliy ma‘lumotli mutaxassis savodxonligining eng yuqori darajasi uning o‘z ongida millati va ijtimoiy darajasiga munosib madaniy nutq malakasini shakllantirishidir. To‘g‘ri, keyingi bir necha yilda madaniy nutq va u bilan bog‘liq boshqa tushunchalar borasida ayrim qarashlar yuzaga kela boshladi. Biroq o‘zbek mutaxassisi uchun nutqning lisoniy manzarasi qanday? Turli ijtimoiy tabaqaga mansub insonlarning og‘zaki va yozma nutqiy savodxonligi va shu orqali uning ijtimoiy o‘rni ham qanday shakllantirilishi, ishlov berilishi mumkin? Til o‘qitishning nazariy yutuqlari soha mutaxassisi uchun qanday ahamiyatga ega: boshqacha qilib aytganda, o‘zbek tilini soha mutaxassisiga o‘rgatish qanday iqtisodiy-ijtimoiy samara bera oladi?

Bu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish lozimki, horijda ham, ushbu muammolarning qo‘yilishi ancha keng qamrov kasb etgan bo‘lsa-da (xususan, Kaliforniya Santa-Barbara universiteti professori Alan Lui, Buyuk Britaniya De Monfor universitetida Syu Tomas boshchiligida ishlayotgan «Transliteracy Research Group» tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin), maqbul echim – metod, metodologiyani qamrab olgan tizim – shakllantirildi, deyishga hali erta.

Qo‘yilgan muammolar echimi uchun quyidagi yo‘nalishlar ustuvor deb olinishi kerak.

Birinchi o‘rinda nomutaxassislarga o‘zbek tili ta’limi sifatini oshirish lozim. Oliy ta’lim tizimida o‘zbek tilini o‘rganishga ehtiyoj bormi? Bir qarashda bu savol o‘ta reaksiyon tuyuladi. Bunday savol berishning o‘zi xato. Biroq hissiyotlarga berilmay o‘ylab ko‘raylik, bu savol berilsa-yu, «ha» va «yo‘q» deguvchilardan tuzilgan ikki qarama-qarshi guruh paydo bo‘lsa, ularning qanday asoslari bo‘lar edi?

«Yo‘q» deguvchilar: Talaba maktabga ona tilida muloqot qilish malakasi bilan keladi. Albatta, u ona tilini ilmiy jihatdan bilmaydi. Biroq buni bilish unga shartmikan? U allaqachon unli va undoshlarni nazariy bilimlarsiz bemalol o‘z o‘rnida ishlatib bo‘g‘inlar, bo‘g‘inlardan so‘zlar tuza olish malakasini meros qilib olgan. Sodda va qo‘shma gaplarning ta’rif va tasniflarini bilmay turib ulardan kundalik ehtiyojiga ko‘ra o‘z o‘rnida foydalanib kelmoqda. Hech ko‘rganmisiz, biror o‘zbek talabaning bo‘g‘in tuzish uchun qiynalib, yordam so‘raganini? Til qoidalarini bilmay turib mukammal nutq tuzib bo‘lmaydi, degan fikr to‘g‘ri, albatta. Ammo bu til qoidalarini, ta’kidlanganidek, bola o‘zi genetik va ijtimoiy-maishiy imkoniyatlari darajasida o‘zlashtirib boraveradi. Tilda shunday qoidalar borki, ularni shakllantirish deyarli imkonsiz, ammo til tashuvchilari ushbu qoidalardan adashmay foydalanadilar. Yoshlar nutqi bo‘yicha ko‘zga ko‘ringan tadqiqotchilardan bo‘lgan S.N.Seytlin rus tilidan quyidagi misollarni keltiradi: kariy so‘zi faqat glaz so‘zi bilan qo‘llanishi èki STN tovushlari qator kelib qolsa (masalan, lestnitsa so‘zida), o‘rtadagi tovush, LNS tovushlari qator kelib qolsa (masalan, solnse so‘zida), birinchi tovush tushirib talaffuz qilinishi lozimligi borasida qanday qoida bor? [1:10] O‘zbek tili misolida ham bunday holatlarni ko‘plab ko‘rsatish mumkin: qaysi o‘rinda unlini old èki orqa qator qilib talaffuz qilish borasida talabalar hech adashmaydi. Ammo maktab o‘quvchilarini qo‘ya turing, filolog talabalar ham shunday misol keltiring, desangiz, o‘ylanib qoladi va hkz.

«Ha» deguvchilar: O‘zbek tili ta’limi umuman oliy ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Gegel ta’limda xususiyliklargagina asoslanish bolani hamma narsaga pisandsizlik bilan qarashga o‘rgatadi deb hisoblagan. Shuning uchun ta’limda mavhumotlarga asoslanish bolani keyingi hayot yo‘lida mustaqil yashab ketishi uchun imkon beradi. Bolaga eng yaqin mavhumot esa tildir. ”Til uni bilish bola ruhini xususiyliklar va yakkaliklardan umumiylikka tomon, onga tomon ko‘tarib boradigan o‘sha havo yangliq hissiy-nohissiy hilqatdir» [2:93]. Bolada aynan o‘sha – unda mavjud bo‘lgan ona tiliga xos genetik va ijtimoiy-maishiy tajribalardan foydalanib turib, umuman har qanday tajribaviy ko‘nikmalarni umumlashtirish – nazariy bilimlarga aylantirish malakasini shakllantirish mumkin. Boshqa sohalaridagi maishiy ko‘nikma hamda tajribalar bolada nazariy bilimlarni shakllantirish uchun asos bo‘ladigan darajada ko‘p emas. To‘g‘ri, talaba ona tilida muloqot qila biladi. Ammo bu muloqot ko‘nikmasi ijtimoiy talablar darajasida shakllanmagan, uning o‘z kichik muhiti doirasiga moslashgandir. Bu ko‘nikmani malaka darajasiga ko‘tarish, sayqallash esa ta’lim jarayonida amalga oshadi. Ko‘rinadiki, har ikki qarash tarafdorlari ham o‘z fikrlarini isbotlash uchun muayyan asoslar ko‘rsata oladi. Ammo, bizningcha, har ikki guruh bir muammoga ikki tomondan qarab turibdi, xolos: aslida, o‘zbek tili ta’limi, albatta, zarur. Ammo bugungi shaklida emas. Darhaqiqat, ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida zamon bilan hamnafas qadam tashlashga harakat qilinayotgan ekan, ta’lim jarayoni ham bundan mustasno qolishi mumkin emas. Ona tili individning shaxs bo‘lib shakllanishidagi eng etakchi omillardan ekanligini barcha mutafakkirlar ta’kidlab kelganlar. Tildan foydalanish imkoniyati faqat insonga berilgan ne‘matdir. Undan foydalana bilish insonni boshqa mavjudotlardan farqlovchi eng asosiy xususiyatdir (Insonni so‘z ayladi judo hayvondin. A.Navoiy). Tilning barcha uchun ochiqligi, foydalanish imkoniyati barcha uchun tengligi aslo undan foydalanishda ham barcha tengligini bildirmaydi. Shuning uchun nomutaxassis oliy ta’lim muassasalarida ona tili ta’limining mazmuni talabalarda kundalik muloqot kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Bu esa hozirgi kunda nafaqat soxa mutaxassisi talabalarining, balki filolog talabalarining ham og‘riq nuqtasiga aylanib qolgan og‘zaki va èzma nutqini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Demak, o‘zbek tili ta’limining (ona tili ta’limining) ustuvor vazifasi nutq o‘stirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Bundan tashqari, fikrni qanday shaklda va qanday

vositalar yordamida ifodalanganini nazariy asoslash uchun o‘quvchida ehtiyoj yo‘q. Muhimi – kerakli vaziyatda o‘rinli va jo‘yali nutq hosil qilish. Buning uchun talabdan oddiy grammatika qoidalarini bilish talab qilinadi. Ya’ni kelishik qo‘shimchalaridan to‘g‘ri foydalanish, so‘z tartibiga amal qilish hamda so‘z tanlash. Murakkab grammatika masalalari esa soha mutaxassisi uchun muhim emas. Ko‘pchilikda muloqot malakasi yo‘q. «Bug‘doy noning bo‘lmasin, bug‘doy so‘zing bo‘lsin», – deb bejiz aytmaganlar, axir. Talaba ijtimoiy-maishiy hayotida zarur bo‘lgan ana shu bug‘doy so‘zni o‘zbek tili saboqlarida olmasa, qaydan oladi. Shundan kelib chiqqan holda o‘zbek tili ta’limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo‘yiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun talabada muayyan kompetensiyalar shakllantirilishi lozim. Ana shu kompetensiyalar sirasida birinchi turgan kommunikativ kompetensiya quyidagilarni nazarda tutishi «Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta’lim uchun davlat ta’lim standarti» loyihasida ko‘rsatilgan:

– jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

– o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish; – ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

– muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

– turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish. Ko‘rinadiki, qo‘lga kiritilishi lozim bo‘lgan malakalar o‘ta zaruriy va hayotiydir.

Adabiyotlar:

1. Сейтлин С.Н. Язык и ребёнок. Лингвистика детской речи. – Москва: Владос, 2000. – С.10.
2. Гегель. Философия духа // Гегель. Сочинения т. ИИИ. –М., 1956. – С. 93.